

CHET TILINI O'RGANISH USULLARI

Jumanazarova Asaljon Tohir qizi*Urganch Ranch texnologiya universiteti.**Pedagogika va filologiya fakulteti**“O‘zbek va xorijiy tillar” 2-kurs talabasi*jumanazarovaasal389@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning ortib borayotgani, uning ta‘lim, kasbiy faoliyat va shaxsiy rivojlanishdagi o‘rni keng yoritiladi. Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni bilish nafaqat qo‘shimcha ko‘nikma, balki raqobatbardoshlik omiliga aylangani ta‘kidlanadi. Shuningdek, chet tilida erkin va ravon muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari, talaffuz, lug‘at boyligini oshirish hamda grammatikani amaliy qo‘llash masalalari batafsil muhokama qilaman. Maqolada samarali o‘rganish strategiyalari, jumladan, muntazam mashq qilish, real hayotiy vaziyatlarda tilni qo‘llash, tinglab tushunish va suhbat amaliyotiga e‘tibor qaratish kabi usullar ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalarning, xususan, mobil ilovalar, onlayn platformalar, sun‘iy intellektga asoslangan dasturlar va interaktiv resurslarning o‘rni alohida qayd etiladi. Natijada, chet tillarini puxta egallash insonning shaxsiy va professional hayotida yangi imkoniyatlar eshigini ochishi, xalqaro hamkorlik va madaniy almashinuvni rivojlantirishga xizmat qilishi xulosa sifatida bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Chet tillari, samarali usullar, grammatika, aspekt, sun‘iy intellekt.*

Abstract: *This article extensively discusses the growing need to learn foreign languages in modern society and highlights their role in education, professional activity, and personal development. In today’s era of globalization, proficiency in foreign languages is emphasized not merely as an additional skill, but as a key factor of competitiveness. The article also examines in detail the ways of developing fluent and confident communication skills in a foreign language, including improving pronunciation, expanding vocabulary, and applying grammar in practical contexts. Effective learning strategies are explored, such as practicing regularly, using the language in real-life situations, focusing on listening comprehension, and engaging in conversation practice. In addition, special attention is given to the role of modern technologies, particularly mobile applications, online platforms, artificial intelligence-based programs, and interactive resources. As a result, mastering foreign languages is concluded to open new opportunities in both personal and professional life, while also contributing to international cooperation and cultural exchange.*

Keywords: *Foreign languages, effective methods, grammar, aspect, artificial intelligence.*

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается растущая потребность в изучении иностранных языков в современном обществе, а также их роль в образовании, профессиональной деятельности и личностном развитии. Подчёркивается, что в условиях глобализации владение иностранными языками стало не просто дополнительным навыком, а важным фактором конкурентоспособности. Также обсуждаются пути формирования навыков свободного и беглого общения на иностранном языке, включая совершенствование произношения, расширение словарного запаса и практическое применение грамматики. В статье анализируются эффективные стратегии обучения, такие как регулярная практика, использование языка в реальных жизненных ситуациях, развитие навыков аудирования и разговорной речи. Кроме того, отдельно отмечается роль современных технологий, в частности мобильных приложений, онлайн-платформ, программ на основе искусственного интеллекта и интерактивных ресурсов. В заключение делается вывод о том, что глубокое освоение иностранных языков открывает новые возможности в личной и профессиональной жизни человека, способствует развитию международного сотрудничества и культурного обмена.

Ключевые слова: иностранные языки, эффективные методы, грамматика, аспект, искусственный интеллект.

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, istiqlolning ilk yillaridanoq O'zbekiston demokratik hayot qurishga kirishdi. Yoshlarni ilmiga qaratilgan imkoniyatlar muhim ahamiyat kasb etdi o'sha yillarda. Amalga oshirilgan islohatlar salmog'i yildan yilga kerak bo'lsa, kundun kunga ortdi. Faqat tub islohatlar emas balki boshqa javhalarda jumladan, ta'lim tizimida ko'plab o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ayniqsa o'sha yillarda chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab sharoitlar yaratilib berildi. Bundan asosiy maqsad yoshlarning bilim saviyasini oshirish, chet tiliga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirish maqsad deb belgilangi Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet davlatdan hamkorlik bitimlarni qilib hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Jumladan shu fikrlarning davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini" o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunga kelib chet tiliga bo'lgan talab judayam ortib bormoqda. Yoshlar uchun

yaratilayotgan bu imkoniyatlar va sharoitlar yoshlarni kelajagida katta yo'l ochib bermoqda. Eng avvalo davlatimiz tamonidan ajratilayotgan chet tillarni o'rganish uchun grand ta'limi shu sababdan yosh kelajak grandlardan foydalanib chet tillarni bepul va mukammal o'rganmoqdalar. Bu keng bo'lgan imkoniyatlar yosh avlodni chet davlatda tarjima orttirib kelishi uchun ham yo'l ochib berdi. Shu sababdan ko'plab yoshlar chet davlatda o'qib tarjima orttirib kelmoqda shu bilan birga o'zlarini orzularini amalga oshirmoqdalar.

Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikdan hamkorlikda o'zi buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir. Atrofimizga nazar bilan qarasak til o'rganuvchi kishilar, ayniqsa, yoshlar ko'payib bormoqda. Qayerga qarasangiz, ingliz tilini o'zlashtirish kurslari tashkil etilgani o'quv kurslariga taklif, e'lonlarga ko'zimiz tushadi. Bu, albatta, bejiz emas. Kundan kun rivojlanib borayotgan davrda, ingliz tili-dunyo tiliga aylanib bormoqda va ingliz tilini bilish - jahon ta'lim standarti hisoblanadi. Bunga isbot sifatida hozirda I-sinf dan boshlab maktablarda ingliz tili fanini o'qitish va o'rganish yo'lga qo'yildi va tilga ixtisoslashmagan oiliy ta'lim muassasalarida ham bo'lajak kadrlar ingliz tilida erkin fikr almasha olishlari uchun ingliz tili darslari va kurslari yo'lga qo'yildi. Mashhur nemis olimi Y.V.fon Gyote aytdanidek: **“Til insonni inson bilan bog'laydigan eng kuchli vositadir”**.

Har kim chet tili o'rganishi mumkin asosiysi inson uchun intilish, o'ziga kerakli yo'nalish va o'zi uchun qulay yo'lini to'pish-bu albatta til o'rganish uchun eng muhim jarayon hisoblanadi va oson, tez o'rganishga yordam beradi. Hozirgi yoshlar o'ziga aniq maqsad qo'yib til o'rganish bo'shlaganlar va o'zlari kelajagi uchun intilmoqdalar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Chet tilini o'rganishda sabrsizlik qilmaydigan odamlar kamdan kam topiladi. Kuf-suf desangiz tilni o'rganib qo'lmaysiz yoki chet davlardagi insonlar bilan mustaqil muloqat qilolmaysiz. Lekin bu u qadar oson ish emas, shu bilan birga, tasavvurdagiday qiyin ish ham emas.

Istalgan xorijiy tilni o'rganishda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan eng muhim jihat bu qobiliyat va istakdir. Qobiliyat masalasida qo'rqmasangiz bo'ladi, chunki u har bir odamda bor. 2006-yili amerikalik olim Richard Sparks o'z tadqiqotlari bilan til o'rganish uchun allaqanday olamshumul tug'ma iste'dodlar kerak degan fikr asossiz ekanini isbotladi. Endi istakka kelsak. “Istak – bu minglab imkoniyatdir, xohlamaslik esa – minglab bahonadir” degan hikmatli gap juda topib aytilgan. Bir narsani aniqlab oling: siz tilni o'rganishni istaysizmi yoki yo'q? bu savolga javobingiz ha bo'lsa siz albatta til o'rgana olasiz. Agar sizda ikkilanish bo'lsa siz qancha majburlab til o'rgatmoqchi bo'lsak ham siz o'sha tilni qabul qilmaysiz, shu bilan aytmoqchimanki istak eng muhim ro'l o'ynaydi. Har chet tilni mukammal o'zlashtirish uchun tizimli yondashuv zarur. Masalan qilib aytganda: ona tilida asosiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ikkinchi

til orgali mintaqaviy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, xorijiy til orqali esa global kommunikatsiya imkoniyatlarini kengaytirish insonning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababli, til organish nafaqat shaxsiy taraqqiyot, balki jamiyatning umumiy rivojlanishi uchun ham muhimdir.

Asosan, chet tilini o'qitish metodlari to'rt nom bilan ma'lum va shu bilan birga mashhurhamdir. Hozirgi kunga kelib shu to'rt metodalar yoshga chet tili osonlik bilan o'rgatilmogda bular tinglash, gapirish, o'qish va yozish ushbu to'rt usul.

Bolalarga ikkinchi tilni o'rganish va ularga til o'rganish uchun qulayliklar yaratish bizning ularga beradigan eng katta tuhfalarimizdan biridir. Hozirgi kunda bir nechta tilni bilish nafaqat ishda, balki ijtimoiy, aqliy va madaniy jihatdan ham ko'p eshiklarni ochadi. Yoshlikdan til o'rganish bolalarni o'z tengqurlari orasida ajralib turishiga imkon beradi va shu bilan birgalikda, ulardagi ijodkorlikni, tanqidiy fikrlashni va muammolarni hal qila olish imkoniyatini taqdim etadi. Avvalo, o'rganuvchi yoshi, qiziqishi va izchillik asosida til o'rganishga kundalik sarflaydigan vaqt miqdori, inglizcha muhit kabilar muhim bo'lsa, foydalaniladigan darslik sifati, mahoratli va bilimli o'qituvchi va til o'rganishdagi to'g'ri yondashuv usullari kabilarning ham yangi til o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zan, o'quvchilar til o'rganishdagi qiyinchiliklarini shu tilda gaplashuvchi chet davlatlarida bo'lishga sharoitlari yoki inglizcha gaplashadigan do'stlari yo'qligi bilan bog'laydilar. Aslini olganda esa, hozirgi texnologiya va Internet rivojlanayotgan davrda bu kabi narsalar o'rinsiz deb o'ylayman. Ijtimoiy tarmoqlarda xususan Hellotalk, YouTube, telegram orqali onlayn darslar olish yoki Youtube va skype orqali video darslar ham til o'rganishda juda ommalashgan va qulay usullardandir. Til o'rgatuvchi o'quv kurslarining ham o'zni beqiyos. Chunki, guruhdagi boshqa til o'rganuvchilar bilan maqsadingiz bir va shu yo'lda bir-biringiz bilan inglizcha muloqot qilishingiz, ma'lumot almashishingiz yoki raqobatbardosh bo'lishingiz mumkin. Til o'rganishning innovatsion usullari borasida tajribali tilshunoslar va poliglottlar (bir necha tilda gaplashuvchilar) tavsiyalaridan foydalanib va o'z shaxsiy tajribamga tayangan holda qiziqarli dars tashkillashtirishga harakat qilaman. Yaqinda, 12 tilda gaplashuvchi tilshunos va tarjimon, Benny Luisning til o'rganishdagi yangicha yondashuvi menda katta qiziqish uyg'otdi. U Italyan tilini o'rganish uchun o'nlab grammatika kitoblarini o'qigan, til kurslariga qatnagan va ko'plab so'zlar yodlagan lekin harakatlari besamar ketgan. Shundan so'ng, "Tinglash va qaytarish" usuli bo'yicha til o'rganishni boshlagan. Bir yildan so'ng esa Italyan tilida bemalol so'zlashadigan darajaga yetgan. Boshqa yangi tillarni o'rganishda ham xuddi shu usuldan foydalanadi va 3-4 oyda yangi tilda muloqot qiladigan darajaga yetadi. Natijada, 12 tilda gaplashuvchi tilshunos va tarjimon darajasiga yetadi.

Uning bu til o'rganish usulini shunday tushuntirish mumkin: bola taxminan 2-2.5 yoshga yetguncha gapira olmaydi; shu vaqt davomida u so'z zaxira to'playdi. Holbuki, bolaga grammatikadan dars o'tilmaydi va qilgan xatolari uchun dashnom berilmaydi. U faqat atrofdagilarni tinglash va eshitganlarini qaytarish yoki amalda qo'llash orqali o'z

ona tilini o'zlashtiradi. Xuddi shu singari kattalar ham tinglaganlarini takrorlash orqali so'z boyliklari oshib, gapirishni boshlaydilar. Eng muhimi, ular gapira olish uchun bolalardek ko'p muddat sarflamaydilar chunki, ularda til o'rganish ko'nikmasi bor va boshqa tillarni o'rganish yanada osonlashib boraveradi. Y angil tilda gapira olish uchun esa hamma so'zlarni bilish muhim emas, hattoki ona tilimizda ko'p so'zlarni bilmasak ham juda yaxshi muloqot qila olamiz.

Ingliz tilini o'rganishni maqsad qilgan inson o'zi uchun inglizcha muhit yaratishi ya'ni doimo inglizcha tinglab, o'qib, yozib va gapirishi maqsadga erishishning eng samarali usulidir.

Ko'pchilik insonlar "Maxsus til kurslariga borsam, albatta, chet tilini o'rganaman ", deb o'ylashadi. To'g'rirog'i, chet tili kurslarini o'z maqsadlariga erishishda ma'sul deb o'ylashadi. Bu umuman noto'g'ri. Unutmang, har doim o'zingiz uchun o'zingiz ma'sulsiz, o'qituvchi o'rgatishi mumkin, ammo saboqning 99 foizi o'zingizga, 1 foizi o'qituvchiga bog'liq" deydi Alisher Absalomov o'zining "Rus tilini o'rganishning samarali usullari" kitobida. Aslida, chet tili o'rganishda muhim bo'lgan omillar juda ko'p, lekin men, o'rganuvchi nazorat o'rnatishi, o'zi tashkillashtirishi mumkin bo'lgan sharoitdan kelib chiqib o'ziga bog'liq bo'lgan omillarni sanashga harakat qildim. Yuqorida, til o'rganuvchilarga maqsadlariga erishishdagi ba'zi asosiy omillar haqida gapirib o'tdim, endi esa chet tili o'rganishni maqsadi yo'lida oxirigacha bora olmayotgan yoki bu borada muvaffaqiyatga erisholmayotganlarning bu borada yo'l qo'yadigan ba'zi bir xatolarini aytib o'tmoqchiman.

Insonlar doimo o'zlari uchun qiziqarli va huzurbaxsh mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga harakat qiladilar va hattoki, vaqt qanchalik tez o'tganini ham sezmay qoladilar. Agarda, yangi til ham kuchli qiziqish va ishtiyoq bilan o'rganilsa, maqsadga shunchalik tez va oson yetishish mumkin. Biz esa, ko'pincha bu jarayonni majburiyat sifatida qabul qilamiz va natijada, yangi til o'rganish jarayoni biz uchun juda zerikarli tuyuladi. Natijada, siz uchun zerikarli bo'lgan mashg'ulotdan qochishga yoki kamroq vaqt ajratishga moyillik vujudga keladi. Aksincha, o'zingiz qiziqqan soha yoki mavzu bo'yicha yangi o'rganayotgan tilingiz orqali ma'lumot olishga, tinglashga, yozishga va gapirishga harakat qilsangiz, bu jarayon qanchalik qiziq ekanligini sezishingiz mumkin. Masalan, sport sohasiga qiziquvchilar o'rganayotgan tillari orqali sport yangiliklarini kuzatib borishi, shu tildagi sport sohasiga oid teleko'rsatuvlarni tomosha qilishi, yoki shu soha bo'yicha chet tilida o'z fikrlarini bo'lishishi mumkin. Aynan o'zim ham tibbiyot sohasiga qiziqqanim uchun doimo ingliz tilida meditsinaga daxldor jurnallarga a'zo bo'laman, inglizcha shu sohadagi kinolarni ko'raman (masalan, Doctor House), podcastlar eshitaman (Vital signs) va o'zim olgan ma'lumotlarni jamlab ingliz tilida gapirib beraman. Meni tinglaydigan odam topilmasa, bu muammo emas, oynaga qarab o'zimga gapirib berishim mumkin (g'alati tuyulishi mumkin lekin maqsadga erishish uchun har qanday usul yoki vositadan foydalansa arziydi) ayniqsa, hozirgi smartfonlardagi diktofon ham bu borada juda qo'l keladi. Nutqimda yo'l qo'yayotgan

xatolarimni eshitib keyingi gal shu xatolarni qaytarmaslikka harakat qilaman. Yana bir ko'pchilik yo'l qo'yadigan xatolardan biri, bu noreal maqsadlarni oldiga qo'yish. Ayrimlar ish, o'qish tufayli yangi til o'rganishga kuniga yarim yoki bir soat vaqt ajratsayu, reja asosida esa ikki yoki uch soatlik vaqt belgilasa, kun oxiriga kelib ulgurolmagani uchun stresga tushishi yoki til o'rganishni butunlay tashlab qo'yishi mumkin. Bu esa, uzoq muddatda va sekin bo'lsa ham umuman to'xtatib qo'yishdan yoki stresga tushib foydasiz asabiylashishdan ko'ra, oz-ozdan o'rganib bo'lsaham maqsadga erishishni foydaliroq ekanligini ko'rsatadi. Shu o'rinda "Toshbaqa va quyon" haqidagi ertakni eslashni o'zi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Garchi sekin bo'lsada, toshbaqaning sabri va maqsadga tomon sobitligi (perseverance) insonlarga o'rnak bo'la oladi. Shuni ham qo'shimcha qilmoqchi edimki, yaxshi kayfiyat, ijobiy ichki ruhiy kechinma va yaxshi hordiq ham chet tili o'rganishda katta ahamiyatga ega. Toni Robinsning aytishicha, " Eng yaxshi usul va qoidalar ham muvaffaqiyatning atigi 20 foizini tashkil etadi. Qolgan 80 foiz inson psixologiyasiga bog'liqdir". Mutaxassislarining e'tirof etishicha, ijobiy ruhiy ichki kechinmani saqlab qolish va shakllantirish til o'rganishda qo'llaniladigan usullardan ham kuchli hisoblanadi. Yana bir turdagi o'quvchilar borki, ular yuzlab kitoblarni yig'ib oladilar, lekin amalda ulardan deyarli foydalanmaydilar. Bunday o'quvchilarni, velosiped yoki moshina sotib olib, uning qismlarini, qanday ishlashi va minishni o'rganmaydigan kishiga o'xshatish mumkin. Har qanday kitobdagi tavsiyalar faqat amalda bajarilgandagina foydali bo'ladi. Yangi til o'rganish majburiyat emas, sevimli mashg'ulot yoki hobbi sifatida qaralsa, uni o'rganish shunchalik osonlashadi. Bu jarayonga qanchalik moslashish yoki qiziqarli muhitni yaratish ko'pincha o'quvchining o'ziga bog'liq. Intizom, ma'suliyatlilik va sabrlilik esa har qanday yutuqning poydevoridir. So'zimning yakunida Alisher Absalomovning "Rus tilini o'rganishning eng samarali usullari" kitobini til o'rganuvchilar uchun o'qib chiqishni tavsiya qilaman. Bu kitobda rus tili misolida qanday tez va samarali o'rganish, o'zini, emotsional holatini boshqarish usullari va mashqlari, til o'rganishda qo'yiladigan xatolar haqida juda keng to'xtalib o'tilgan.

XULOSA

Xulosa ornida shuni aytib joizki metodlarning xilma-xilligi va ularning maqsadga muvofiq qo'llanilishi chet tili organish jarayonini samaraliroq qilishga yordam beradi. Turli usullar yordamida talabalar yoki til o'rganuvchilar o'z ehtiyoj va qobiliyatlariga mos yondashuvni tanlash imkoniga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, psixologik va ijtimoiy omillarni hisobga olish, hamda ilgor texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Chet tili o'rganish nafaqat yangi bilim va ko'nikmalarni egallash jarayoni, balki shaxsning har tomonlama rivolanishiga olib keluvchi muhim bosqichdir. To'g'ri yondashuvlar va o'quv metodlaridan foydalanish esa bu jarayonning muvaffaqiyatli bo'lishiga asos bo'ladi. Chet tillarini o'rganish bugungi globallashuv davrida har bir inson uchun muhim ko'nikmalardan biri hisoblanadi. Turli mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, sifatli ta'lim

olish, yaxshi kasb egallash va dunyoqarashni kengaytirishda chet tillarini bilish katta imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli til o'rganish jarayoniga to'g'ri yondashuv va samarali usullardan foydalanish juda muhimdir. Chet tilini o'rganishda bir nechta samarali usullar mavjud. Avvalo, muntazam ravishda o'qish, yozish, tinglash va gapirish ko'nikmalarini birgalikda rivojlantirish zarur. Kitoblar o'qish, maqolalar bilan ishlash va yangi so'zlarni o'rganish lug'at boyligini oshiradi. Shuningdek, filmlar ko'rish, musiqa tinglash va podkastlardan foydalanish orqali tilni tabiiy muhitda o'rganish mumkin. Bu usullar talaffuzni yaxshilash va tilni tezroq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, suhbat amaliyoti ham muhim rol o'ynaydi. Do'stlar, o'qituvchilar yoki til o'rganayotgan boshqa insonlar bilan muloqot qilish orqali o'rgangan bilimlarni amalda qo'llash mumkin. Zamonaviy texnologiyalar, mobil ilovalar va sun'iy intellekt ham til o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Umuman olganda, chet tilini o'rganishda eng muhim omillar — bu motivatsiya, sabr-toqat va muntazam mashq qilishdir. Agar inson o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, doimiy ravishda bilimini oshirib borsa, u albatta chet tilini muvaffaqiyatli egallaydi. Shunday qilib, to'g'ri usullar va qat'iyat orqali har bir inson chet tilini o'rganib, o'z kelajagi uchun yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin.

REFERENCES:

1. Abdilkadimovna, K. N. (2021). Comparative And Linguocultural Analysis Of The Concept " Gender" In Uzbek And English Languages. The American Journal of Social Science and Education Innovations,
2. Alisher Absalomov o'zining "Rus tilini o'rganishning samarali usullari" kitobida.
3. Toni Robinsning aytishicha, " Eng yaxshi usul va qoidalar ham muvaffaqiyatning atigi 20 foizini tashkil etadi. Qolgan 80 foiz inson psixologiyasiga bog'liqdir".
4. Toshbaqa va quyon. G'ulom Muhammad Vosif.
5. Uktamovna, B. L. (2023). Modern Methods of Teaching Monologue and Dialogue Speech in Foreign Language.
6. Y.V.fon Gyote aytganidek: **"Til insonni inson bilan bog'laydigan eng kuchli vositadir"**.